

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI VA UNING AHAMIYATI

Tursunov Faridun Mustafoyevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Bank ishi" kafedrasida assistenti
tursunovfaridun4330@gmail.com

Shomirzayev Dilmurod Shomurot o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashuvi bank xizmatlarini samarali boshqarish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit siyosati va uning ahamiyati o'rganib chiqildi, tijorat banklarining aktivlari va passivlarini boshqarishda kredit siyosatining ahamiyati va bank xizmatlariga doir me'yorlarni nazort qilish hamda bank va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari ta'sir etuvchi o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlar va omillarni aniqlash muhim hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *kredit, kredit siyosati, bank xizmatlari, lizing, faktoring, hisob-kitob operatsiyalari, iste'mol portfeli, ishonch xizmatlari, fond va kredit funksiyalari.*

KIRISH

Zamonaviy axborot jamiyatidagi bank xizmatlari iqtisodiy sektorning muhim qismini egallay boshladi, uni o'rganish bir qator nazariy va amaliy bilim usullarisiz mumkin emas, ular orasida induksiya, mantiqiy tahlil, deduksiya, iqtisodiy modellashtirish, iqtisodiy qarorlarni optimallashtirish metodologiyasi va boshqa ko'plab usullar mavjud. Ushbu maqolani ko'rib chiqishning maqsadi bank kredit siyosati va uning ahamiyatini bilish, shuningdek kredit siyosatining O'zbekiston Respublikasida rivojlanish istiqbollari aniqlashdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolanganach, bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va bank bo'linmalarini tashkil etish hamda innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kengaytirish vazifasi yuklatilgan[1].

Tijorat banklari aktivlarining 70-80 foizini kreditlar tashkil etadi. Ularning asosiy daromad manbai ham kreditdan keladigan foizlar hisoblanadi. SHuning uchun har bir tijorat banki oqilona kredit siyosatini ishlab chiqishi va unga amal qilishi bank barqarorligini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni

belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlari kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir[2].

Kredit siyosati quyidagi bo'limlardan iborat buladi:

- umumiy koidalar;
- kredit siyosatining maksadi;
- vakolat darajalari;
- mas'uliyatlarning taksimlanishi;
- kreditlashning asosiy koidalari;
- kredit turlari va shakllari;
- kredit berish va kaytarish muddatlari;
- kreditlarni monitoring qilish.

Kredit siyosatini mazmuni quyidagi bandlarda berilgan:

1. Kreditni ta'minlanganligi va uni qabul qilish, baholash va amalga oshirishni asosiy tartibi.

2. Bank kredit portfelini aniqlash va shakllantirish.

3. Bank riskining kredit faoliyati uchun javob beradigan o'rinbosar, kredit qo'mitasi raisi va kredit inspektoriga yuklangan vakolatlar ro'yxati.

4. Eng yuqori kredit imtiyozlarini belgilash va ko'rsatish.

5. Bank xizmat ko'rsatadigan mintaqa, kredit qo'yilmalarining asosiy qismi, joriy etiladigan tarmoq sohasi yoki sektorlari.

6. Kredit hujjatlarini saqlanishi va tekshirilishi uchun ma'sul xodimning javobgarligi.

7. Kreditlar bo'yicha arizalarni tekshirish va tegishli qaror chiqarish bayoni xamda Kredit arizasiga ilova qilinadigan va kredit ishida talab qilinadigan zaruriy hujjatlar ro'yxati.

8. Muammoli kreditlar tarkibi va tahlili.

Banklarning kredit portfeli va loyihalar sifatini oshirish, Stress-testlar natijalariga ko'ra, muammoli kreditlar ulushi bir necha barobar ko'payishi mumkinligi, bu esa bank tizimi uchun jiddiy xatardir.

Tijorat banklarining kredit siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilar:

- yuqori daromad keltirishni ta'minlash;
- likvidlikni saqlab turish;
- bank aktivlarini samarali joylashtirish;
- amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishini ta'minlash.
- riskni oldini olish va tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish.

Markaziy bank faoliyatining asosiy maqsadi bo'lgan iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlashda transmission mexanizm foiz kanali ta'sirchanligini oshirish maqsadida pul-kredit operatsiyalari amalga oshiriladi. Pul-kredit operatsiyalari bank tizimi umumiy likvidligini tartibga solish orqali qisqa muddatli foiz stavkalarini boshqarishga yo'naltirilgan. Markaziy bank tomonidan ushbu operatsiyalar foiz koridori mexanizmi asosida amalga oshiriladi va pul bozori foiz stavkalarining asosiy stavkaga nisbatan ± 2 foizlik koridorda shakllanishini ta'minlaydi.

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishda asosiy e'tibor – iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash va inflyasiya darajasini 5 foizlik o'рта muddatli targetiga erishishga qaratilmoqda.

2025 yilning II choragida iqtisodiyotda pul-kredit sharoitlari Markaziy bank asosiy stavkasining yillik 14 foiz darajasida o'zgarishsiz qoldirilishi, umumiy inflyasiyaning pasayuvchi dinamikasi bilan birga bazaviy inflyasiya va inflyasion kutilmalarning nisbatan yuqori saqlanib qolishi fonida "Nisbatan qat'iy" darajada shakllandi. Ushbu davrda hukumat xarajatlarining ko'payishi bank tizimi likvidligini oshiruvchi asosiy omillardan bo'lib, ichki valyuta bozorida talabning ortishi hisobiga Markaziy bank intervensiyalari va naqd pul bilan bog'liq amaliyotlar likvidlikni kamaytiruvchi ahamiyat kasb etdi. Natijada, tizimdagi qo'shimcha likvidlik hajmi chorak davomida qisqarib bordi va bu, o'z navbatida, monetar omillarning inflyasiyaga oshiruvchi ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i to'g'risida, kreditlar turlari bo'yicha ma'lumot⁷⁹ 1-jadval

Ko'rsatkich nomi	01.12.2024 y. (mlrd so'm)	01.12.2025 y. (mlrd so'm)	O'zgarishi, (foizda)
Jami kredit qoldig'i	382 078	465 493	22%
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	97 698	146 709	50%
Ipoteka kreditlari	45 183	57 265	27%
Mikroqarzlar	14 382	23 660	65%
Iste'mol kreditlari	22 047	43 865	99%
Ta'lim kreditlari	1 830	4 701	157%
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	14 229	17 055	20%
Boshqa kreditlar	29	163	470%
Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	284 380	318 784	12%
Kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	267 413	304 866	14%
Lizing va faktoring	1 675	1 997	19%
Banklararo kreditlar	1 155	1 143	-1%
Mikrokreditlar	9 463	5 288	-44%
Sinditsiyalashtirilgan kreditlar	4 673	5 490	17%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib oxirgi 12 oyda turibdiki jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig'i salmog'i o'sish dinamikasiga ega bo'lmoqda.

Kredit siyosatida potensial qarzdorlarning kredit qobiliyatini aniqlash uchun ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish tadbirlari batafsil yoritilishi lozim. Bank qarzdorlarning kredit qobiliyati mezonlari va ularni baholash metodikasini aniq belgilab olishi kerak. Bundan tashqari, kredit siyosati qarzdorlar tomonidan biznes

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti ma'lumotlari

rejaga buyurtmalar portfelining tuzilishi va bank kreditidan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar, ishlab chiqariladigan tovarlarni sotish bozorining mavjudligini kiritish bo'yicha talabni o'z ichiga olishi kerak.

XULOSA

Banklar tomonidan mijozlarga erkinliklar yaratish va ularni o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga o'tishga asoslanishi zarur.

Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi risklarni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlari kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir

Tijorat banklari aktivlarining 70-80 foizini kreditlar tashkil etadi. Ularning asosiy daromad manbai ham kreditdan keladigan foizlar hisoblanadi.

SHuning uchun har bir tijorat banki oqilona kredit siyosatini ishlab chiqishi va unga amal qilishi bank barqarorligini ta'minlaydi.

Pul-kredit siyosati -hukumatning pul muomalasi va kredit sohasida olib boradigan bosh yo'li va mamlakat iqtisodiyoti barqarorligini va uning samarali faoliyatini ta'minlashga, pul tizimini lozim darajada mustahkam saqlab turishga qaratilgan chora-tadbirlari hisoblanadi.

Pul-kredit siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, odatda, uni Markaziy bank amalga oshiradi. Kredit siyosati orqali muomaladagi ortiqcha pul massasi qisqartiriladi yoki ko'paytiriladi, inflyasiyaning pasaytirish chora-tadbirlari ko'riladi.

Markaziy bank kredit siyosatini olib borishda pul bozoriga to'g'ridan-to'g'ri o'zining boshqaruv vakolatlari yordamida va pul emissiyasi orqali ta'sir o'tkazishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.01.2018 yildagi PF-5296-son.
2. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. "Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish" fanidan o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2020. 240 bet.
3. О. И. Лаврушин, И. Д. Мамонова, Н. И. Валенцева [и др.]; под ред. О. И. Лаврушина. Банковское дело: учебник – Москва: КноРус, 2016. – 800с.
4. Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковская. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Омега-Л, 2012. – 452 с.
5. Банковское дело: учебник / под ред. Г. Г. Коробовой., 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Магистр, 2015. – 592 с.

6. Корнилова, Ю.А. Дистанционное банковское обслуживание: обзор предложений / Ю. А. Корнилова // Экономика современного предприятия. – 2011. – № 10 – С. 48–54.

7. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // Экономический журнал. 2012. № 2 (26).